Аннотация: В статье рассматриваются методы государственного финансового стимулирования инновационной деятельности промышленных предприятий. По данному вопросу изучены различные методы стимулирования, выявлены и оценены возможности их использования на промышленных предприятиях. Разработаны предложения по использованию различных методов государственного финансового стимулирования инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационная активность, стимулирование, промышленные предприятия, финансовое стимулирование, эффективность, зарубежный опыт, социально-экономическое развитие, глобализация, экономический рост, социальная и социальная инфраструктура.

KIRISH

Davlat organlarining innovatsiyalar sohasidagi funksiyalariga innovatsion faoliyatni tartibga solish innovatsiyalar uchun mablag'larni jamlash va safarbar etilishi yo'nalishlarini belgilash, innovatsiyalarni moddiy, moliyaviy va ma'noviy rag'batlantirish, bu sohada raqobat muhitini yaratish, innovatsion risklardan himoyalash mexanizmi ishlashini ta'minlash, innovatsion jarayonlarning huquqiy bazasini yaratish (jumladan, innovatorlarning mualliflik huquqlari va intellektual mulk himoya qilinishi), innovatsion faoliyatning kadrlar ta'minoti, innovatsion infratuzilmani shakllantirish, innovatsion jarayonlarning mintaqalarda tartibga solinishi, innovatsion faoliyatning xalqaro jihatlarini kabilar kiradi¹. Mazkur funksiyalar qonunchilik bazasining ishlab chiqilishi, tegishli davlat dasturlari, moliyaviy quvvatlash, imtiyozli shart-sharoitlar yaratilishi va boshqalar ko'rinishida innovatsion faoliyatni olib boruvchi subyektlarni rag'batlantirishda aks etadi.

¹ Роль государства в стимулировании рынка инноваций: офиц. сайт (Электрон ресурс).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot davomida yuqorida ta'kidlangan innovasion faoliyatga oid dastlab keng ma'noda "Innovatsiya" atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter tomonidan 1912 yilda "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi"² asarida taklif etilgan. Innovation nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to'la asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo'yicha mutaxassis P.Druker innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni chiqdi, ya'ni "Yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo'lib, uning yordamida g'oyalar va ixtirolar birinchi marta tijorat voqeligiga aylanadi. Bu – mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish, iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish, demakdir"³ ishlab chiqdi.

Rus iqtisodchilaridan A.I.Anchishkinning⁴ fikriga ko'ra "innovatsiya", "yangilik kiritish" atamaları faqat texnik-texnologik o'zgarishlar bilan chegaralanishi mumkin emas. U ushbu atamaga keng ijtimoiy ma'no berib, yangiliklarni jamiyatni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqqan va texnik-texnologik yangiliklar muayyan iqtisodiy oqibatlarini keltirib chiqargan holda sotish bozori uchun kurashishga ko'maklashib, raqobat muhitini o'zgartiradi va bu bilan ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi, deydi.

Yana bir ta'rif quyidagicha: "innovatsiya – bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida inson o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangiliklarni (yangi amaliy vositani) yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayoni" deb ifodalanadi. E.A.Utkin⁵ esa innovatsiya (yangilik kiritish)ni amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi ob'yekt sifatida ta'riflaydi.

Ko'plab olimlar rivojlanayotgan iqtisodiyotda va umuman beqaror iqtisodiy vaziyatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish yanada maqbul, foydali va samarali ekanligiga qo'shiladilar. Xorij olimi L.E. Mindelining so'zlariga ko'ra, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bilvosita usullarining ahamiyati, birinchi navbatda, bilvosita rag'batlantirish to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga nisbatan sezilarli darajada past byudjet xarajatlarini talab qilishi va shu bilan birga u innovatsion sub'ektlarning ancha keng doirasini qamrab olishi bilan belgilanadi⁶. Shuningdek V.R. Tugusheva va R.R. Yunyaeva, bilvosita rag'batlantirish to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga qaraganda ancha kam byudjet mablag'larini talab qilishini ta'kidlagan⁷.

To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita rag'batlantirish deb ataladigan chora-tadbirlarni chuqurroq tahlil qilgan N.Yu. Krivoruchko infratuzilma va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish sohasidagi chora-tadbirlarni bilvosita qo'llab-quvvatlash choralari sifatida tasniflaydi va L.E. Mindeli davlat innovatsion infratuzilmasini shakllantirishni bevosita qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari deb hisoblaydi⁸.

Umuman olganda, keltirib o'tilgan mutaxassis olimlar tomonidan innovatsiya va innovasion faoliyati ustida ish olib borilgan bo'lib, xo'jalik yurutuvchi korxonalarida innovasion faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish usullari mavzusi doirasida tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganshi va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Asosiy qism. Fikrimizcha, mamlakatimizda innovatsion faoliyatning integral tizimi harakatlanishi va rivojlanishi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olmoqda.

1. Innovatsion xarakterdagi mahsulot, ishlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar va tashkilotlar hamda ular safining kengayib borishi.

2. Innovatsion xarakterdagi mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish hajmlarining va turlarining kengayib borishi.

3. O'z kuchi bilan ishlab chiqariladigan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlarga xarajatlarning kengayib borishi va tarkibining mazmunan boyib borishi.

4. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktor ishlari soni, ko'lamlar va ularga xarajatlarning o'sib borishi hamda moliyalash manbalarining kengayishi.

2 Shumpeter Y. "Teoriya ekonomicheskogo razvitiya". – M., Progress, 1982. –455s.

3 П.Друкер Новый бизнес.- М.: Экономика, 1993, с

4 Анчишкин А. И. Наука - техника - экономика.- М.: Экономика, 1986, -35 с.

5 Уткин Э.А., Морозова Г.И. Инновационный менеджмент. –М., Акалис, 1996. -208 с.

6 Jahon iqtisodiy forumi: rasmiy veb-sayt. Kirish rejimi: <http://www.weforum.org/>. (Kirish sanasi: 01/12/24).

7 Tugusheva V.R., Yunyaeva R.R. Agrosanoat majmuasida innovatsion faoliyatni kreditlash uchun davlat imtiyozlari // Perm davlat pedagogika universitetining Izvestiya. V.G. Belinskiy. – 2011. – No 24. – B. 469–474.

8 Innovatsiyalarni boshqarish asoslari / Ed . Zavlina P.N., Kazantseva A.K., Mindeli L.E. – M.: "Iqtisodiyot", 2006. – 518 b.



Innovatsion faoliyatni xarakterlovchi qayd etilgan yo'nalishlarda jarayonlar rivojlanishi umumiy iqtisodiy rivojlanish uchun ham mikro iqtisodiy rivojlanish uchun ham tobora muhimroq ahamiyat kasb etadi hamda milliy iqtisodiyotning raqobat bardoshligi mana shu yo'nalishlarda moliyaviy resurslar oqilona safarbar etilishi bilan belgilanadi.

Ushbu holatlar bo'yicha Namangan viloyati korxonalarining innovatsion faoliyati ko'rsatkichlari quyidagicha⁹:

Namangan viloyatida 2019-yilda bunday korxonalar va tashkilotlar soni 184 tani tashkil etib, 2019-yilda birinchi marta o'zlashtirganlar soni 89 ta bo'ldi.

Namangan viloyatida 2019-yilda 177 ta kichik biznes korxonalari o'z kuchlari bilan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqardilar.

O'zbekistonda 2019-yilda o'z kuchi bilan yaratilgan innovatsion mahsulotlar va xizmatlar miqdori (QQS va aksizsiz) 26811,4 mlrd so'mni tashkil etib, shundan 8255,6 mlrd so'mi 2019-yilda birinchi marta o'zlashtirilgan edi.

Namangan viloyatida bu raqamlar tegishli ravishda 843,1 mlrd so'mni va 133,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

O'zbekistonda 2019-yilda o'z kuchi bilan yaratilgan innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning 8455,4 mlrd so'mi kichik korxonalar va mikrofirmalarga to'g'ri keldi.

O'zbekistonda 2019-yilda 3753 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar shunday mahsulotlar ishlab chiqardi (jami innovator korxonalar 3916 ta, ya'ni ularning 95,8 foizi kichik korxonalar).

Mazkur vaziyatda yirik korxonalarning kichik korxonalarga nisbatan texnik-texnologik ustunligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ular yangi mahsulotlarni katta hajmlarda ishlab chiqarish imkoniyatlariga egalari va innovatsiyalar aynan ular orqali tezroq va kengroq ko'lamlarda samara beradi.

2019-yilda Namangan viloyatida kichik korxonalar va mikrofirmalar 727,7 mlrd so'mlik innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratdilar (jamiga nisbatan 86,2 foiz). Ularning yuqori ulushi viloyatda yirik korxonalar kam ekanligi bilan izohlanadi.

2019-yilda Namangan viloyatida 39 ta ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi, ularning 26 tasi ilmiy tadqiqotlarga, 2 tasi loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlarga, 11 tasi ilmiy-texnik xizmatlarga to'g'ri keldi. Bajarilgan ishlarning jami qiymati 12,4 mlrd. so'mni tashkil etib, ilmiy tadqiqotlarga 10,7 mlrd so'm, ilmiy-texnik xizmatlarga 1,4 mlrd so'm to'g'ri keldi.

2019-yilda Namangan viloyatida 8,4 mlrd. so'mlik ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlar amalga oshirildi. Ularning 2,2 mlrd. so'mi tabiiy fanlarga, 2,3 mlrd. so'mi texnika fanlariga, 0,5 mlrd. so'mi tibbiyot fanlariga, 0,9 mlrd. so'mi qishloq xo'jaligi fanlariga, 0,4 mlrd. so'mi ijtimoiy fanlarga va 2,0 mlrd. so'mi gumanitar fanlarga to'g'ri keldi. Xarajatlarning hammasi joriy xarajatlardan iborat bo'ldi va ularning 7,9 mlrd. so'mi ish haqi va u bilan bog'liq xarajatlarga to'g'ri keldi.

2019-yilda O'zbekiston ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarishga xarajatlar 602,3 mlrd. so'mni tashkil etib, uning 304,4 mlrd. so'mi davlat sektoriga 191,0 mlrd so'mi tadbirkorlik sektoriga, 104,1 mlrd so'mi oliy ta'lim sektoriga to'g'ri keldi. Fan sohalari bo'yicha xarajatlarning 266,4 mlrd. so'mi tabiiy fanlarga, 150,5 mlrd. so'mi texnika fanlariga, 41,7 mlrd. so'mi tibbiyot fanlariga, 65,0 mlrd. so'mi qishloq xo'jaligi fanlariga, 54,2 mlrd. so'mi ijtimoiy fanlarga va 54,5 mlrd. so'mi gumanitar fanlarga to'g'ri keldi.

2019-yilda tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlariga 589,6 mlrd so'm sarflandi va shundan 581,6 mlrd. so'mini joriy xarajatlar tashkil etdi. Demak, kapita xarakterdagi sarflarga 7 mlrd so'm yo'naltirilgan xolos. Bu esa tadqiqotlar asosan eski moddiy baza asosida olib borilayotganligini bildiradi va ularning innovatsion yo'nalganligini oshirishga yordam bermaydi. Joriy xarajatlarning 439,3 mlrd. so'mi yoki deyarli 70 foizi ish haqi va u bilan bog'liq xarajatlardan iborat.

1-jadval. Innovatsion faoliyat turlari bo'yicha (texnologik, marketing va tashkiloynovatsiyalarga xarajat¹⁰ (mln so'm).

	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami texnolog, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar.	4162,3	4707,2	6603,5	6829,9	17680,7	19130,6
Shundan:						
Texnologik innovatsiyalarga	3951,6- 94,9%	3522,8- 74,8%	5621,5- 85%	5337,5- 78%	16831,9- 95,2%	17412,9- 91%

⁹ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси. Давлат стат. Қомитаси.// Ўзбекистонда илм-фан ва Инновацион фаолият. Тошкент 2021/2022/2023. 81-83-бет



Marketing innovatsiyalariga	90,5-2,1%	219,1-4,6%	82,4-1,2%	221,5-3,2%	318,3-1,8%	493,4-2,6%
Tashkiliy innovatsiyalarga	120,2-2,8%	1017,9-21,6%	899,6-13,6%	1270,3-18,5%	530,4-3%	1224,3-6,4%
Texnologik innovatsiyalar turlari bo'yicha xarajatlar:						
a) maxsulotlar bo'yicha	1626,1	1684,3	2543,3	2068,8	6416,1	6468,6
b) jarayonlar bo'yicha	2325,5	1838,5	3078,2	3268,7	10415,8	10944,3

1-jadvalga ko'ra, mamlakatimizda innovatsion faoliyat xarajatlari 2017-yildan ortib borgan va 2022-yilda 19130,6 mln so'mga etgan. Asosiy xarajatlar texnologik innovatsiyalarga yo'naltirilgan bo'lib, xarajat miqdori ortib borib 2022-yilda 17412,9 mln so'mga etgan. Innovatsiyaga xarajatlarning asosiy qismi texnologik innovatsiyalarga yo'naltirilgan. Bu innovatsiyalar tarkibida jarayonlar bo'yicha iqtisodiyotimizdagi qator masalalar, jumladan energiya tejamkorligi, mahalliy resurslarni to'la qayta ishlash, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish kabilar hal etilishiga yo'l ochib berilmoqda.

Albatta, buning zamirida iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonlarining jadallashtirilishi va iqtisodiyotimiz moliyaviy imkoniyatlarining mustahkamlanib borayotganligi yotadi.

Davlat statistik qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijalari bo'yicha 2019-yilda innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillar respondentlar tomonidan O'zbekiston bo'yicha quyidagicha baholangan edi: moliyaviy mablag'lar etishmasligi – 23,1 foiz (Namangan viloyatida – 30,0 foiz), mahsulot, ishlar, xizmatlarga talab pastligi – 8,0 foiz (20,0 foiz), yangiliklarning qimmatligi – 12,9 foiz (10,0 foiz), yuqori iqtisodiy tavakkalchilik – 9,3 foiz (5,0 foiz), malakali xodimlar etishmasligi – 11,0 foiz (15,0 foiz), yangi texnologiyalar to'g'risida axborot etishmasligi – 7,2 foiz (5,0 foiz), sotish bozorlari to'g'risida axborot etishmasligi – 6,5 foiz (5,0 foiz), innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi 7,2 foiz (5,0 foiz), avval amalga oshirilganligi sababli innovatsiyalarga zarurat yo'qligi – 14,7 foiz (5,0 foiz). Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda innovatsion faoliyatga to'sqinlik qilayotgan eng birinchi amal moliyaviy resurslar tanqisligidir. Innovatsiyani qimmat deb bilish ham shunga bog'liq. Ikkala omil birgalikda 36 foizni tashkil etmoqda. Bu Namangan viloyatida 40 foizdan iborat. Demak, innovatsion rivojlanish ko'p jihat moliyaviy resurslar bozorining erkinlashtirilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki innovatsiyalar bozor tamoyillari asosida joriy etilganda eng tez va eng yuqori natijalarga erishiladi. Iqtisodiy xatarlar Namangan viloyatida mamlakat ko'rsatkichiga nisbatan yoki Toshkent shahri va viloyatidagiga nisbatan 2 marta past baholanishi tadbirkorlik subyektlarining erkin bozorda faoliyat olib borishdan cho'chimayotganliklarini va tavakkalchiliklarga yuqoriroq darajada moyil ekanliklarini ifodalamoqda.

Sanoat korxonalarda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning samarali mexanizmini yaratish, korxonalarning inqiroz holatidan chiqish yo'lini innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida bozor talablariga javob beradigan yangi mahsulotlarni ishlab chiqish orqali ta'minlash mumkin. Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi jamiyatning intellektual salohiyatini ko'tarishga kerak bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. 2006-yildan boshlab iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosatining iqtisodiy islohotlarda kun tartibidagi dolzarb masala sifatida maydonga chiqishi yoki 2017-yildan iqtisodiy rivojlanishning fundamental asosini tashkil qiluvchi ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha yangi kursdagi islohotlarning amalga oshirilishi milliy innovatsion tizimlarning davlat va korporativ moliyalashtirish manbalarini yanada kengaytirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirilishiga sabab bo'lgan.

2-jadval. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari¹¹ (mlrd so'm).

№	Moliyalashtirish manbalari/Yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2020-yilda 2016-yilga nisbatan o'sish, %da
1	Korxonalar xususiy mablag'lari	213,4	2501,5	1381,5	1251,8	1180	553,0
2	Xorijiy investitsiya kreditlari	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9	789,2
3	Tijorat banklari investitsiya kreditlari	26,8	26,8	262,5	280,1	157,3	586,9
4	Davlat byudjeti va maqsadli fondlar	31,7	370,6	2081	3839,7	919,1	2899,4
	Jami	311,8	4634,3	3757,3	5528,2	2571,3	824,7

11 Muallif tomonidan tuzilgan.



Bunda umumiy tarzda innovatsiyalarni moliyalashtirishning manbalari institutsional investorlar kesimida quyidagi jadvalda keltirishimiz mumkin. 2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantirish bilan bog'liq ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va yangi mahsulotlarni o'zlashtirish siyosatini o'zida mujassamlashtiruvchi innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish tizimida korxonalar xususiy mablag'lari 2016-yilda 213,4 mlrd so'mni tashkil qilgan, 2017-yilga kelib bu miqdor 2501,5 mlrd so'mga o'sgan. Xususan, ushbu yilda yuqori texnologik qurollangan sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, import mahsulotlariga qaramlikni oldini olishga qaratilgan mahalliy xom ashyolar bazasida yuqori qo'shimcha qiymatli tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshirishga qaratilgan islohotlarni sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida keng qollanilish maqsadida olib borilgan islohotlar natijasida kuzatilgan. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos ravishdagi "Himoya yostigi" vazifasini bajaruvchi chora tadbir sifatida milliy innovatsion tizimda yangi mahsulotlar va texnologik qayta qurollantirish siyosati olib borilmoqda. Ushbu siyosat milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshlik pozitsiyasini mustahkamlanishiga ta'sir etmoqda. Ushbu chora tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yurituvchi Sanoati korxonalari innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirishga ichki moliyaviy resurslarni yuqori darajada mobilizatsiya qilishni talab qilgan.

2017-yildan O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etilishi, mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini tizimli tashkil qilishda muhim rol o'ynadi. Ushbu vazirlik O'zbekistondagi mavjud intellektual va texnologik salohiyatni aniqlash, uni oshirish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha yahlit davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat hokimiyati organi sifatida bir qator vazifalarni amalga oshirishlari belgilangan. Hududlar va korxonalar kesimida yangiliklarini yaratish, ilmiy ishlanmalar yaratish va ulardan korxonalar foydasini oshirish, ilmiy yutuqlarni yuqori darajadagi ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish, innovatsion rivojlanish kontekstidagi investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish va boshqa qator tadbirlar amalga oshirmoqda. 2017-yilda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida ikkinchi o'rindagi yetakchilik xorijiy investitsiya kreditlarini o'zlashtirishga tegishli bo'lib, 1228,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Ushbu innovatsion rivojlanishining strategik manbai 2016-2020-yillarda xaotik ravishda tebranib borgan bo'lib, qabul qilingan innovatsion rivojlanishning investitsiya dasturlari manzillik ro'yxatiga kiritilgan loyihalarning moliyalashtirish sig'imi bo'yicha sarf xarajatlar ushbu tendensiyaga asos sifatida kiritiladi. Tahlil qilinayotgan davrdagi innovatsion loyihalarni eng yirik masshtabdagi moliyalashtirish manbai 2019-yilda davlat byudjeti va maqsadli fondlar moliyaviy resurslariga to'g'ri kelib, 3839,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Mamlakatda innovatsion loyixalarni moliyalashtirish bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

3- jadval. O'zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari, jamiga nisbatan foizda¹².

№	Moliyalashtirish manbalari/Yillar	2016	2017	2018	2019	2020
1	Korxonalar xususiy mablag'lari	68,4	54,0	36,8	22,6	45,8
2	Xorijiy investitsiya kreditlari	12,8	26,5	0,9	2,8	12,2
3	Tijorat banklari investitsiya kreditlari	8,6	11,5	7,0	5,1	6,3
4	Davlat byudjeti va maqsadli fondlar	10,2	8,0	55,4	69,5	35,7
	Jami	100	100	100	100	100

3-jadvalda nisbiy ko'rsatkichlarga murojaat qiladigan bo'lsak, jami innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda 2016-yilda korxonalar xususiy moliyaviy resurslari 68,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib davlat byudjeti va davlat maqsadli fondlari 35,7 foizni tashkil qilmoqda. (2.4-jadval). Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining innovatsion tavsifdagi investitsiya kreditlari 2016-yilda 8,6 foizni, 2020-yilga kelib esa umumiy pasayish tendensiyasida 6,1 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu jarayon innovatsion loyihalarning rentabellik indeksining tijorat banklari kredit qiymatidan nisbatan pastligi va shuningdek, ushbu loyihalarning yuqori risk omiliga bog'liqligi bilan izohlanadi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, korxonalarda innovatsion sharoitlar yuzaga kelgan ilmiy g'oyalarni tijoratlash uchun imkoniyatlar mavjud;

¹² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Ikkinchidan, innovatsion faollikning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, investitsion jozibadorligini nisbatan yuqori ko'rsatkichi ularni moliyalashtirish manbai tarkibida korporativ moliyalashtirish manbalarini ya'ni tadbirkorlik subyektlarining xususiy mablag'larining sezilarli qismini ichki iste'molga emas balki innovatsion tavsifdagi kapital sifatida sarflanishini taxminlagan.

Uchinchidan, keyingi 5 yil mobaynida innovatsion faoliyatni davlat o'rqali rag'batlantirish siyosati natijasida uni moliyalashtirish manbalari tarkibida davlat moliyaviy resurslarining ulushi ortib borgan.

To'rtinchidan, xorijiy investitsiyalar keng jalb qilish davlat siyosatida yuqori texnologik taraqqiyotni ta'minlovchi, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi innovatsion rivojlanish tendensiyalari uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan qurollantirish ustuvor ahamiyat kasb etgan.

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan bo'lgan sohalarda innovatsion xab, ko'pgina texnologiyalar import qilinadi. Ba'zi sohalarda (masalan, an'anaviy) O'zbekiston yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishga faol ravishda investitsiya qiladi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun davlat tomonidan rag'batlantirishda mamlakatimizda qo'yidagi ishlar amalga oshirildi:

- telekommunikatsiya infratuzilmasini yangilash va qurish, shu jumladan Broadband;
- fundamental ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish va oliy ta'lim tizimini isloh qilish;
- ta'lim muassasalari fondlarining xususiy moliyalashtirilishini, xususan, maqsadli stipendiya dasturlari va endowment-fondlarni (Endowment funds) rag'batlantirish;
- tadqiqot va rivojlanishni moliyalashtirishning o'sishi, shu jumladan, xalqaro investitsiya jamg'armalari ishtiroki bilan startaplar uchun venchurlik moliyalashtirishni rivojlantirish;
- ichki kompetensiyalarini rivojlantirish uchun R&D - markazlarni yaratish uchun xorijiy kompaniyalarni (koreys, yapon, nemis va shu kabilari) jalb qilish;
- xususiy ta'limni rivojlantirish (asosiy e'tibor - universitetlar), shuningdek, xususan texnikaviy oliy ta'limni rivojlantirish uchun dunyoga tanikli mutaxassislarni jalb qilish;
- intellektual mulk huquqlarini himoya qilish: qaroqchilik, plagiat va xalqaro savdo belgilarini nusxalashga qarshi kurash;
- O'zbekiston Respublikasining har bir mintaqasida (texnoparklar, biznes-inkubatorlar, EIZ) innovatsion infratuzilmani yangilash va yaratish;
- innovatsiya markazlari uchun soliq va bojxona imtiyozlari (uzoq muddatli investitsiyalar uchun 10+ yil)
- texnologiyalar uzatish tizimini yaratish;
- fanni ommalashtirish, shuningdek, fanni ingliz tilida o'rganishni rag'batlantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotimiz natijasida biz shu xulosaga keldikki, innovatsion faoliyani rivojlantirish maqsadida ichki katta mablag' zarur. Ushbu zarur mablag' manbasini shakllantirishda davlatning maxsus qo'llab qo'vvatlovchi jamg'armalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ushbu jamg'armani shakllantirishda yirik sanoat korxonalari davlat byudjetiga o'tkaziladigan foyda solig'ining 2 foizini o'tkazish orqali shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxitdinov X. Innovatsion salohiyat shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilishga institutsional yondashuv // Iqtisodiyot va moliya. – Toshkent, 2012, 2-son. 2-6–betlar.
2. Barker A. Alximiya innovatsiy. Per. s angl. – Moskva: Vershina, 2013. – C.79.
3. Vasilev Yu.P. Razvitiye innovatsionnoy deyatel'nosti v SShA ili kak udvoit VVP / Uchebnoye posobiye. – Moskva: Ekonomika, 2005. – S.139.
4. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qomitasi "O'zbekistonda ilm- fan va innovatsion faoliyat". Toshkent- 2020. b.82
5. "O'zbekiston respublikasi ilmiy texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar asosiy ko'rsatkichlari" statistik byulleteni.
6. Kulagin A.S., Leont'ev L.I. O stimulirovaniy innovatsionnoy deyatel'nosti // Nedvijimost i innovatsii. Pravovoye regulirovaniye. 2002. №1 (10). S.17-21.
7. Shumpter I. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya: issledovaniye predprinimatelskix pribili, kapitala, kredita, protsenta i sikla konyukturi. M.: Progress, 1982. -455.
8. Kiryuxin G.A., Shaybakova L.F. Innovatsii, innovatsionnie protsessi i metodi ix regulirovaniya: sushnost soderjaniye. –SPb: SPbGEIA. -1995.- 59 s.
9. Doyl P. Menendjment: Strategiya i taktika. –SPb. : Piter. 1999. -559 s.
10. Utkin E.A., Morozova G.I. Innovatsionniy menendjment. –M.: AKALIS, 1996. – 208 s.
11. Mensfild E. Ekanomika nauchno- texnicheskogo progressa. –M.: Progress, 1970. -356 s.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>